

O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR

Jalg'asheva Umida Muzaffar qizi
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Kimyo texnologiyasi Kimyo yo'nalishi 3- kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qitishdagi interfaol metodlarning ta'lif va tarbiya jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari hamda shu usul bilan o'quvchilarning ilm , bilim salohiyatini oshirish, kerakli materiallardan foydalanish , mavzularni metodlar orqali yodda tutishi va har doim esda saqlashi talablarning xotirasini yaxshilashga, erkin fikrlashga ,bahs-munozalar o'tkazishni o'rgatish haqida fikr va mulohaza yuritiladi.

Kalit so'z: Interfaol, metodlar,fikr, fikrlash, ta'lif, tarbiya, ko'nikma, malaka, tashabbus, bilim, baholash, taqqoslash, analiz qilish , o'zlashtirish, xato va kamchiliklari.

Hozirda kunda ta'lif sifatini yaxshilash maqsadida turli xil usul va metodlarni takomillashtirish ,chuqur o'rganish asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda . Shu sababdan o'qitishda interfaol usullarni qo'llash mumkin. Yurtimizdagi ta'lif va tarbiya sifatlarini yangi usullar orqali joriy qilishdan iborat.

Interfaol metod – ta'lif jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'lifning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lif-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Ularni bir nechaga darajaga bo'lib o'rganamiz. Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noa'nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi .Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilmayxillagini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar

namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lismetodlari quyidagilar sanaladi:

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”), “Blist-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta'lism” va b.

Interfaol ta'lism strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta'lism metodlari tarkibidan interfaol ta'lism strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi.

Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishslash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lismetodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lism oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lism oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lism maqsadi, ta'lism oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limming davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Xulosa . Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lism amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahsmunozarada fikrlash asosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta'lismetodlari” o'quv-uslubiy qo'llanma, “Navro'z” nashriyoti, Toshkent – 2017
2. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalahtirish. T. , “Iqtisodiyot”, 2012.
- 3.“Umumta'lism fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
4. <http://www.pedagoglar.uz/>